PROFILAKTIKA INSPEKTORINING OILAVIY NIZOLAR VA AJRIMLARNING BARVAQT OLDINI OLISH FAOLIYATIDA MAHALLA YETTILIGI BILAN O'ZARO HAMKORLIKNI TASHKILLASHTIRISH

Tursunov Musojon Hasanboy o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ichki
ishlar vazirligi Akademiyasi
3-kurs 319-guruh kursanti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23730543

Annotatsiya: Mazkur maqolada profilaktika inspektorining oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olish faoliyatida mahalla yettiligi bilan o'zaro hamkorligini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Oilalarda yuzaga kelayotgan nizolarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda ajrimlarning oldini olishda profilaktika inspektori va mahalla yettiligi a'zolarining hamkorlikdagi faoliyatining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy nizolarni erta aniqlash, muammoli oilalarni o'rganish, fuqarolar bilan individual profilaktik suhbatlar o'tkazish, yarashtirish tadbirlarini tashkil etish va oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Profilaktika inspektori hamda mahalla yettiligi o'rtasidagi axborot almashinuvi, hamkorlikdagi profilaktik tadbirlar va individual yondashuv oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash hamda ularning salbiy oqibatlarini oldini olishning muhim omili sifatida asoslangan. Maqolada mazkur yo'nalishdagi hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, mahalla yettiligi, oilaviy nizo, ajrim, barvaqt profilaktika, oilaviy munosabatlar, hamkorlik, individual profilaktika, yarashtirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации эффективного взаимодействия инспектора профилактики с представителями «семёрки махалли» в деятельности по раннему предупреждению семейных конфликтов и разводов. Анализируется значение совместной деятельности инспектора профилактики и членов «семёрки махалли» в выявлении причин и условий возникновения семейных конфликтов, их устранении, а также предупреждении распада семей. Особое внимание уделяется раннему выявлению неблагополучных семей, изучению проблемных семей, проведению индивидуально-профилактических бесед с гражданами, организации мероприятий по примирению супругов и улучшению социально-психологического климата в семьях. Обосновывается, что эффективный обмен информацией, проведение совместных профилактических мероприятий и применение индивидуального подхода являются важными факторами раннего выявления семейных конфликтов и предупреждения их негативных последствий. В статье также разработаны соответствующие предложения и рекомендации по совершенствованию взаимодействия инспектора профилактики с «семёркой махалли» в данном направлении.

Ключевые слова: инспектор профилактики, «семёрка махалли», семейный конфликт, развод, ранняя профилактика, семейные отношения, взаимодействие, индивидуальная профилактика, примирение, профилактика правонарушений.

Abstract: This article examines the organization of effective cooperation between prevention inspectors and the members of the “Mahalla Seven” in activities aimed at the early prevention of family conflicts and divorces. The article analyzes the importance of joint activities of prevention inspectors and members of the “Mahalla Seven” in identifying and eliminating the causes and conditions leading to family conflicts, as well as in preventing family breakdowns. Particular attention is paid to the early identification of dysfunctional families, the study of problematic families, individual preventive discussions with citizens, reconciliation measures, and the improvement of the social and psychological environment within families. The study substantiates that effective information exchange, joint preventive measures, and an individual approach are important factors in the early identification of family conflicts and the prevention of their negative consequences. The article also provides relevant proposals and recommendations for improving cooperation between prevention inspectors and the “Mahalla Seven” in this area.

Keywords: prevention inspector, “Mahalla Seven”, family conflict, divorce, early prevention, family relations, cooperation, individual prevention, reconciliation, crime prevention.

Bugungi kunda jamiyatda oilaning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Oila jamiyatning eng muhim va asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, undagi sog‘lom muhit nafaqat er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarga, balki farzandlarning tarbiyasi, ularning ruhiy holati va kelajakdagi ijtimoiy hayotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oilalarda yuzaga keladigan nizolarni barvaqt aniqlash, ularning sabab va shart-sharoitlarini o‘rganish hamda salbiy oqibatlarga olib kelishining oldini olish huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Oilaviy nizolar turli ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy va psixologik omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro tushunmovchiliklar, moddiy qiyinchiliklar, ishsizlik, oilaviy majburiyatlarga mas’uliyatsiz munosabat, qarindoshlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, farzand tarbiyasidagi muammolar, o‘zaro hurmat va ishonchning susayishi kabi holatlar oilaviy nizolarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Agar bunday nizolarga o‘z vaqtida e’tibor qaratilmasa, ular uzoq davom etuvchi ziddiyatlarga, oilaviy zo‘ravonlik holatlariga, farzandlarning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishga va oxir-oqibat nikohning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Mazkur jarayonda profilaktika inspektorlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Profilaktika inspektori hududdagi oilalarning ijtimoiy holatini o‘rganish, muammoli va nizoli oilalarni aniqlash, fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan individual profilaktik ishlarni olib borish hamda tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish orqali oilaviy nizolarning barvaqt oldini olishda muhim subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda profilaktika inspektorining faoliyati faqat huquqbuzarlik sodir etilganidan keyingi chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki nizoli

vaziyatlarni dastlabki bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvni ham qamrab olishi lozim.

Oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olishda mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mahalla hududida yashovchi oilalarning ijtimoiy sharoiti, oilaviy muammolari, ehtiyojlari va o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida ma’lum darajada amaliy ma’lumotga ega bo‘lgan subyektlar mavjud. Xususan, mahalla yettiligi tarkibidagi mas’ullarning o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha olib boradigan ishlari oilalardagi muammolarni erta aniqlash va ularni kompleks tarzda hal etish imkonini beradi. Shu jihatdan profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan hamkorligini to‘g‘ri va tizimli tashkil etish oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi. Profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasidagi hamkorlik, avvalo, o‘zaro axborot almashinuvi, oilalarning ijtimoiy holatini birgalikda o‘rganish, muammoli oilalarni aniqlash, ular bilan individual profilaktik tadbirlarni tashkil etish, zarur hollarda tegishli mutaxassislarni jalb qilish va oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rishni nazarda tutadi. Ayniqsa, oiladagi muammo faqat huquqiy masala sifatida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatlarga ega kompleks muammo sifatida baholanishi lozim. Shu sababli uning yechimi ham birgina huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimining faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, mahalla va boshqa tegishli subyektlarning hamkorlikdagi harakatlarini talab etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolarni bartaraf etishda profilaktik yondashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan muammoning qanchalik erta aniqlanganiga bog‘liq. Nizo chuqurlashib, tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch keskin pasayganidan keyin uni bartaraf etish ancha murakkablashadi. Shu bois oilalarda dastlabki kelishmovchiliklar, ruhiy bosim, doimiy janjallar, iqtisodiy muammolar yoki boshqa nizoli holatlar yuzaga kelgan davrdayoq tegishli profilaktik choralarni ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Bunda profilaktika inspektori mahalla yettiligi bilan birgalikda oilaning muammosini chuqur o‘rganishi, tomonlarning fikrini eshitishi va muammoning kelib chiqish sabablariga individual yondashishi zarur.

Ajrimlarning hududlar turi bo‘yicha taqsimoti (%)



Shuningdek, oilaviy nizolarni oldini olishda yarashtirish tadbirlarini to‘g‘ri tashkil etish ham muhim o‘rin tutadi. Bunday jarayonda er-xotinning huquq va manfaatlarini hurmat qilish, tomonlarning fikrini xolis tinglash, nizoning asosiy sabablarini aniqlash va oilani saqlab qolish imkoniyatlarini baholash talab etiladi. Shu bilan birga, oiladagi zo‘ravonlik yoki boshqa xavfli holatlar mavjud bo‘lgan vaziyatlarda faqat yarashtirishga urg‘u berish emas, balki jabrlanuvchining xavfsizligi va qonuniy huquqlarini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Mazkur yo‘nalishda mahalla yettiligi bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish profilaktika inspektorining hududdagi oilalar bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish, muammoli oilalar bo‘yicha muntazam monitoring olib borish, ma’lumotlarni o‘zaro almashish, oilalarning ijtimoiy muammolarini tegishli mutaxassislar ishtirokida hal etish va amalga oshirilgan profilaktik tadbirlarning natijadorligini baholab borish oilaviy nizolar va ajrimlarning oldini olishning muhim shartlaridan biridir.

Profilaktika inspektorining oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olish faoliyatida mahalla yettiligi bilan o‘zaro hamkorligini tashkil etish masalasi huquqshunoslik, kriminologiya, psixologiya, sotsiologiya hamda davlat boshqaruvi kabi fanlar doirasida o‘rganilishi mumkin bo‘lgan kompleks masalalardan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy va normativ-huquqiy manbalarni tahlil qilish oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, ularni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish mexanizmlari hamda mahalla institutining ushbu jarayondagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilib, davlat tomonidan oilaning muhofaza qilinishi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma oilani ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va oiladagi nizolarning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy asosini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Unda nikoh tuzish, er-xotin huquq va majburiyatlari, ota-onalar va bolalarning huquqiy munosabatlari, nikohni bekor qilish hamda oilani muhofaza qilish bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solingan. Mazkur normalarni o‘rganish oiladagi nizolarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholash, tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ajrimlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarning mazmunini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi normativ-huquqiy manbalar, xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni profilaktika inspektorlarining faoliyatini tashkil etish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur qonunda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi bilan bog‘liq masalalar belgilangan. Oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va ularning huquqbuzarliklarga olib kelishining oldini olishda, ayniqsa, yakka tartibdagi profilaktik ishlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Profilaktika inspektori oilaviy nizolar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oilalarni aniqlashi, ularning muammolarini o‘rganishi va mavjud xavf omillarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Oilaviy zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olish masalalariga bag‘ishlangan normativ-huquqiy hujjatlar ham mazkur tadqiqot uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda

tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, zo‘ravonlik sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkil etish masalalari o‘z aksini topgan. Bu esa profilaktika inspektorining oiladagi nizoli vaziyatlarga aralashuvida nafaqat yarashtirish, balki xavfsizlikni ta’minlash va huquqiy himoyani amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda oilaviy nizolar, odatda, shaxslararo munosabatlarning buzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, psixologik nomutanosiblik, o‘zaro ishonchning yo‘qolishi va oilaviy majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Psixologik tadqiqotlarda esa oilaviy nizolarning rivojlanishida muloqotning buzilishi, hissiy zo‘riqish, bir-birini tushunmaslik va nizolarni konstruktiv hal qila olmaslik kabi omillarga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur yondashuvlar profilaktika inspektori faoliyatida oilaviy nizolarning faqat huquqiy emas, balki psixologik va ijtimoiy jihatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Sotsiologik yondashuvlarda esa ajrimlarning sabablarini oilaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, bandlik, moddiy ta’minlanganlik, migratsiya, uy-joy muammolari, oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘lash mumkinligi qayd etiladi. Ushbu yondashuv profilaktika inspektori tomonidan muammoli oilalarni o‘rganishda oilaning faqat huquqiy holatini emas, balki uning ijtimoiy sharoitini ham kompleks baholash zarurligini asoslaydi. Shu sababli oilaviy nizolarning oldini olishda muammoning asl sababini aniqlash va oilaga individual yondashish muhim hisoblanadi.

Mahalla institutining oilaviy muammolarni hal etishdagi o‘rni bo‘yicha tadqiqotlarda mahallaning fuqarolarga eng yaqin bo‘lgan ijtimoiy institut sifatidagi imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Mahalla darajasida aholining muammolarini aniqlash, ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalarni aniqlash, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish hamda fuqarolar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga ko‘maklashish imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan mahalla yettiligi faoliyatini profilaktika inspektorining huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan uyg‘unlashtirish oilaviy nizolarning barvaqt oldini olishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolar va ajrimlarning oldini olish masalalari alohida yo‘nalishlar bo‘yicha yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasidagi hamkorlikning aniq tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Ayniqsa, oilaviy nizolarni dastlabki bosqichda aniqlash, muammoli oilalarni xavf darajasiga ko‘ra o‘rganish, ular bo‘yicha yagona profilaktik yondashuvni shakllantirish, hamkor subyektlar o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirilgan tadbirlarning samaradorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotda profilaktika inspektorining oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olish faoliyatida mahalla yettiligi bilan o‘zaro hamkorligini o‘rganishga tizimli va kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-huquqiy xususiyatlari hamda ajrimlarga olib keluvchi omillar tahlil qilindi. Shuningdek, profilaktika inspektori va mahalla yettiligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar o‘rganildi. Tadqiqotda tahlil, qiyoslash, kuzatish, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar orqali oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash, nizoli oilalar bilan individual profilaktik ishlarni tashkil etish, tomonlarni yarashtirish hamda mahalla yettiligi a’zolari bilan hamkorlikni

kuchaytirishning mavjud imkoniyatlari o‘rganildi. Olingan natijalar asosida profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish, oilaviy nizolar va ajrimlarning oldini olish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda profilaktika inspektorining oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olish faoliyatida mahalla yettiligi bilan o‘zaro hamkorligini o‘rganishga tizimli va kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-huquqiy xususiyatlari hamda ajrimlarga olib keluvchi omillar tahlil qilindi. Shuningdek, profilaktika inspektori va mahalla yettiligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar o‘rganildi. Tadqiqotda tahlil, qiyoslash, kuzatish, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar orqali oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash, nizoli oilalar bilan individual profilaktik ishlarni tashkil etish, tomonlarni yarashtirish hamda mahalla yettiligi a’zolari bilan hamkorlikni kuchaytirishning mavjud imkoniyatlari o‘rganildi. Olingan natijalar asosida profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish, oilaviy nizolar va ajrimlarning oldini olish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Ajrashgan oilalarning farzandlar soni bo‘yicha holati (%)



Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olish jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, oilaning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda voyaga yetmaganlarning manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Oiladagi nizolar o‘z vaqtida aniqlanmagan va tegishli profilaktik choralar ko‘rilmagan taqdirda, ularning kuchayishi, oilaviy zo‘ravonlik, huquqbuzarliklar sodir etilishi, farzandlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda nikohning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli oilaviy nizolarni bartaraf etishda muammoning oqibatlariga qarshi kurashishdan ko‘ra, uning sabablarini dastlabki bosqichda aniqlash va oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Tadqiqot natijalari profilaktika inspektori oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va oldini olishda muhim subyektlardan biri

ekanligini ko‘rsatdi. Biroq ushbu faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan mahalla yettiligi hamda boshqa tegishli subyektlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikning mazmuni va sifatiga bog‘liq. Profilaktika inspektori oiladagi vaziyatning huquqiy jihatlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lsa, mahalla yettiligi a’zolari oilaning ijtimoiy holati, turmush sharoiti, bandligi, ehtiyojlari va mavjud muammolari to‘g‘risida amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur imkoniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashtirilishi oilaviy nizolarni har tomonlama o‘rganish va ularga individual yondashish imkonini beradi.

Shuningdek, oilaviy nizolarni oldini olishda barcha oilalarga bir xil yondashuvni qo‘llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Chunki har bir oiladagi nizo o‘ziga xos sabablar va shart-sharoitlar asosida yuzaga keladi. Ayrim oilalarda asosiy muammo moddiy qiyinchilik va ishsizlik bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqalarida psixologik muhit, o‘zaro ishonchsizlik, qarindoshlar aralashuvi yoki oilaviy majburiyatlarning bajarilmasligi asosiy sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli profilaktika inspektori va mahalla yettiligi tomonidan nizoli oilalarni o‘rganishda individual va manzilli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Avvalo, mahalla hududidagi oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash bo‘yicha profilaktika inspektori va mahalla yettiligining hamkorlikdagi faoliyatini aniq reja asosida tashkil etish lozim. Bunda nizoli yoki ajrim xavfi mavjud oilalarni muntazam o‘rganish, ularning muammolarini qayd etish va har bir oila uchun mavjud muammolardan kelib chiqib individual profilaktik chora-tadbirlarni belgilash samarali natija beradi.

Ikkinchidan, oilaviy nizolar bo‘yicha yagona axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasida muammoli oilalar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarning o‘z vaqtida yetkazilishi nizolarning rivojlanish tendensiyasini kuzatish va ularga tezkor munosabat bildirish imkonini beradi. Bunda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va qonunchilik talablariga rioya etish alohida e’tiborda bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, profilaktika inspektorlarining oilaviy nizolar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini oshirish zarur. Xususan, ularga oilaviy nizolar psixologiyasi, nizolarni muzokara va mediatsiya orqali hal etish, oilaviy zo‘ravonlikning dastlabki belgilarini aniqlash, jabrlanuvchilar bilan muloqot qilish hamda turli toifadagi oilalar bilan individual ishlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, mahalla yettiligi tarkibidagi mas’ullarning oilaviy nizolarni aniqlash va oldini olish borasidagi hamkorlikdagi mas’uliyatini kuchaytirish lozim. Har bir mas’ul o‘z yo‘nalishi doirasida aniqlagan oilaviy muammo to‘g‘risida tegishli subyektlarni o‘z vaqtida xabardor qilishi, muammoni hal etishda o‘z vakolati doirasida amaliy yordam ko‘rsatishi hamda zarur hollarda profilaktika inspektori bilan birgalikda ish olib borishi kerak.

Beshinchidan, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan ishlashda “bir martalik suhbat” bilan cheklanib qolmasdan, ularning keyingi holatini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Chunki oiladagi nizo vaqtincha bartaraf etilgandek ko‘rinsa-da, uning asosiy sababi saqlanib qolishi mumkin. Shu bois profilaktik tadbirdan keyingi nazorat va monitoring oilaviy nizolarning takrorlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, oilaviy nizolarni bartaraf etishda psixolog, mahalla mutaxassislari, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlovchi mas’ullar, ijtimoiy xizmatlar hamda boshqa tegishli mutaxassislarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim. Oilaviy nizo bir vaqtning

o‘zida huquqiy, psixologik va ijtimoiy muammo bo‘lishi mumkinligi sababli uni faqat bitta yo‘nalish doirasida hal qilish ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Kompleks yondashuv esa oilaning real ehtiyojini aniqlash va muammoni ildizidan bartaraf etishga yordam beradi.

Yettinchidan, oilaviy nizolarning oldini olish bo‘yicha mahallalarda huquqiy targ‘ibot va ma’rifiy tadbirlarni kuchaytirish zarur. Aholiga nikoh va oilaviy munosabatlardagi huquq va majburiyatlar, farzand tarbiyasi, oilaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, zo‘ravonlikning huquqiy oqibatlari va mavjud yordam mexanizmlari to‘g‘risida muntazam tushuntirishlar berib borilishi oilalarning huquqiy madaniyatini oshiradi.

Sakkizinchidan, profilaktika inspektori va mahalla yettiligining oilaviy nizolarni oldini olish bo‘yicha faoliyatini baholashda faqat o‘tkazilgan tadbirlar soniga emas, balki ularning amaliy natijasiga e’tibor qaratish lozim. Jumladan, nizolarning takrorlanish holatlarining kamayishi, ajrim xavfining pasayishi, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning yaxshilanishi, murojaatlar sonining kamayishi va oilalarning ijtimoiy muammolari hal etilganligi kabi mezonlardan foydalanish faoliyat samaradorligini aniqroq baholash imkonini beradi.

To‘qqizinchidan, oilaviy nizolarni oldini olish bo‘yicha ilg‘or mahalla tajribalarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Turli hududlarda samarali natija bergan profilaktik yondashuvlarni umumlashtirish, ularning ijobiy jihatlarini boshqa mahallalarda qo‘llash profilaktika faoliyatining samaradorligini oshirishi mumkin.

Umuman olganda, profilaktika inspektorining oilaviy nizolar va ajrimlarning barvaqt oldini olish faoliyatini takomillashtirishda asosiy e’tibor profilaktikani reaktiv, ya’ni muammo yuzaga kelgandan keyingi choralar ko‘rish shaklidan proaktiv, ya’ni muammoni oldindan aniqlash va bartaraf etishga yo‘naltirilgan tizimga o‘tkazishga qaratilishi lozim. Bunda mahalla yettiligi bilan doimiy hamkorlik, muammoli oilalarni erta aniqlash, individual yondashuv, psixologik va ijtimoiy ko‘makni kuchaytirish, axborot almashinuvini takomillashtirish hamda amalga oshirilgan profilaktik tadbirlarning natijadorligini monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi oilaviy nizolar va ajrimlarning oldini olish, oilalarda sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qilish hamda mahallalarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-371-son, 2014-yil 14-may.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-407-son, 2016-yil 16-sentabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-561-son, 2019-yil 2-sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjatlari.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda mahalla institutini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oila, xotin-qizlar, mahalla va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
10. Otaxonov F.H. Oila huquqi. – Toshkent: Adolat.
11. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya.
12. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
13. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.
14. Ismoilov I., Ziyodullayev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va uning asosiy yo‘nalishlari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.
15. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga oid o‘quv-uslubiy materiallar. – Toshkent.
16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Oila, nikoh va ajrimlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – Toshkent.